

МУАЛЛИМ ХАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҲ



Илимий-методикалық журнал

2023

1/3-сан

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоғарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз хам хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы ғуўалық берилген.*

Нөкис



МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲАМ РУЎХИЙЛИҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

Sayliyeva M. M. Jamiyat va shax rivojlantirishda milliy g'oya tamoyillari va mazmuni	160
Kenjayeva M. Sh. Milliy qadriyat tushunchasining mazmun va mohiyati	167
Xujaev M. I., Esanova K. I. Маҳмудхўжа Бехбудий жадид матуботи етакчиси	175
Axmadaliyeva M. Sh., Madraximov I. B. Milliy uyg'onish davri poetikasida yetakchi g'oya va obrazlar	182

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Imomberdiyev S. S. Matematika darslarida ekologik komponentdan foydalanishning ahamiyati	186
Қўнназаров А. Қ. Информатика фанидан мултимедиали электрон ўқув қўлланма яратиш ва фойдаланиш методикаси	192
Tursinboyeva Z. U., Ismoilova Z. T., Abdullayeva D. A. Differensiallarning taqribiy hisoblashlarga tatbig'i	198
Tursinboyeva Z. U., Ismoilova Z. T., Ravshanova R. M. Tarmoqlararo balans munosabatlarining iqtisodiy masalalarga tadbirlari	202
Shomurodov N. A. Taqribiy hisoblashlarda differensial hisob va darajali qatordan foydalanish	207

БАСЛАЎИШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТЎРБИЯ

Eshchanova G. O., Durdiyeva M. O. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda ijodiy-kreativ faolligini shakllantirish usullari	212
Ozodova B. Raqamli texnologiya-MTT da zamonaviy zaruriyat	217
Eshchanova G. O., Shamuratova S. Q. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishini shakllantirishga kompetensiyaviy yondashuv	223
Xo'jamberdiyeva Sh. Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishning zaruriyati	230
Eshchanova G. O., Egamberdiyeva M. K. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining turli yosh guruhlarida qayta hikoya qilishga o'rgatish orqali nutq, muloqot kompetensiyalarini shakllantirish usullari	236
Nuradilova A. D. Boshlang'ich sinflarda ona tili fanini o'qitishda noan'anaviy dars usulining samarali natijalari	241
Jabborova O. M. Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va didaktikasining diagnostika masalalari	246
Mardonov Sh. Q. Boshlang'ich ta'lim metodikasi va samaradorligi diagnostikasi	254
Eshmanova N. N. Boshlang'ich sinflarda bayon va insho yozish klaster metodikasi mazmuni	262
Qarshiboyeva X. K., Muminov Z. Sh. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarining nutqiy faoliyatini rivojlantirish usullari	269
Jabborova O. M., Abdujalilova M. M. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy layoqatini rivojlantirish metodikasi	275
Tashpulatova D. M. Boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish samaradorligi	279
Жансаитова Ж. Б., Таджикибаев И. У. Бастауыш сынып оқушыларына арналган психологиялык-педагогикалык диагностика	287
Eshmanova N. N., Rahmonova M. Oilada bola tarbiyasida o'zaro munosabatlar tizimi pedagogik-psixologik xususiyatlari va omillari	293
Tojiboyeva G. R. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda "Rivoj" loyihasiga asoslangan innovatsion maktab imkoniyatlari	299



МИЛЛИЙ ИДЕЯ ХАМ РУЎХЫЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

JAMIYAT VA SHAX RIVOJLANTIRISHDA MILLIY G'OYA TAMOYILLARI VA MAZMUNI

Sayliyeva M. M.

Pedagogika va psixologiya yo'nalishi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistranti

Tayanch so'zlar: milliy qadriyatlar, ezgu fikr, ma'naviy-axloqiy, kichikka izzat, ezgulik tamoyili.

Ключевые слова: национальные ценности, благородная мысль, духовно-нравственное, уважение к младшему, принцип добра.

Key words: national values, noble thought, spiritual and moral, respect for the small, the principle of goodness.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida jamiyat va shaxsni rivojlantirishda milliy g'oyaga asoslanilmoqda. Bu g'oyalarning asosiy tamoyillari 2021-yil O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan bayon qilindi. Mazkur tadqiqotda ana shu milliy g'oyamizning asosiy tamoyillari tahliliga e'tiboringizni tortamiz.

Milliy g'oya – bu 1) millatning o'tmishi, buguni va istiqbolini o'zida mujassam etgan ijtimoiy g'oyalar shaklidir; 2) milliy g'oya – bu millatning ideal maqsad-muddaolarini ifodalovchi fikrlar majmuidir; Shu sababli pedagog olimlar shaxs tarbiyasida milliy g'oyaning muhim o'rin tutishi to'g'risida yakdil fikrga kelganlar. Shu jihatdan mamlakatimizning milliy g'oyasi asoslarini tahlil etish va ularni o'zlashtirish dolzarb bo'lib turibdi.

1. *Insonparvarlik.* Bu tamoyil milliy g'oyamizning asoslaridan biri hisoblanadi. Pedagog olimlarning fikricha, insonparvarlik bu “insonning yuksak ijtimoiy maqomini belgilab bu boradagi diniy va dunyoviy, milliy va umumbashariy qarashlari majmuidir”. Shu jihatdan insonparvarlik har bir shaxsning va jamiyatning ideal maqsadini ifodalaydi. Insoniyat taraqqiyotida insonparvarlik azaliy tajribadan o'tgan tamoyil hisoblanadi. Xalqimizning milliy qadriyatlari tizimida insonparvarlik ilk rejada turadi. Mazkur ma'noda insonparvarlik asoslarini quyidagilar tashkil etishini eslatib o'tish joiz: bolaparvarlik, oilaparvarlik, insonni qadrlash, kichikka izzat, kattaga hurmat, katta yoshlilarni ulug' tutish, har bir inson uchun yordamga tayyor turish va h.k. E'tibor berilsa, xalqimizning milliy

hayoti, ongi va qadriyatlariga singib ketgan insonparvarlikning ko‘lami kengdir. Shu ma’noda bo‘lajak o‘qituvchilar Insonparvarlik tamoyilining bolaparvarlik va kichikka izzat negizlarini to‘g‘ri o‘zlashtirishi, kelgusi faoliyatida ularga qat’iy amal qilishi muhim hisoblanadi.


2. *Ezgulik* – bu “ma’naviy-ahloqiy kategoriyalardan biri bo‘lib, u inson faoliyatining asl mohiyatini tashkil etadi”. Shu jihatdan Ezgulik tamoyili xalqimizning milliy qadriyatlaridan biri bo‘lib, uning tarbiyadagi ahamiyatiga 3700-yil to‘ldi. Chunki Avesto kitobimizda Ezgulik tamoyilining asosini ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amal tashkil etishi, uning vositasida shaxsni tarbiyalash belgilab qo‘yilganligi ma’lum. Shu sababli milliy g‘oyamizning Ezgulik tamoyilini idrok etishda mazkur asoslarga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Unga ko‘ra, shaxs ezgu fikrli inson sifatida tarbiyalanishi, ezgu so‘zli shaxs sifatida voyaga yetkazilishi va ezgu amali odam sifatida faoliyatga yo‘naltirilishi kerak. Ta’lim-tarbiya jarayonida milliy g‘oyamizning Ezgulik tamoyili asosida faoliyat olib borish uchun ta’lim oluvchilarda fikr, so‘z va amal (faoliyat) birligiga amal qilish shakllantirilishi lozim. Bu bilan ta’lim oluvchilarni Ezgulik ruhi asosida tarbiyalashga erishish mumkin. Ayni paytda, Ezgulikning katta yoki kichikligi bo‘lmazligini eslatib o‘tish joiz.

3. *Bunyodkorlik*. Bunyodkorlik – bu “bunyod etish, yaratuvchilik va ijod qilish demakdir”. Shu ma’noda Bunyodkorlik shaxs hayoti, turmush tarzi va ongi, jamiyatning rivojida muhim o‘rin tutadi. Bunyodkorlikning asoslarini quyidagilar tashkil etishini eslatib o‘tish joiz: yangilik yaratish, biror narsani bunyod etish, ijodiy yondashuv asosida mahsulot yaratish, shaxsning bilimi asosida jamiyat hayoti uchun muhim faoliyatni amalga oshirish va h.k. Bunyodkorlik xalqimizning milliy qadriyatlari jumlasidan bo‘lib, unga amal qilish odatimizga aylangan. Milliy davlatchiligimizning har bir davrida bunyodkorlik tamoyiliga qat’iy amal qilib kelingan va natijada xalqimiz dunyodagi eng qudratli millatlardan biriga aylangan. Kezi kelganda ta’kidlash lozimki, har bir shaxsda bunyodkorlik tuyg‘usi bo‘ladi va ana shu tuyg‘uni rivojlantirish bilan ta’lim oluvchilarni bunyodkorlik ruhida voyaga yetkazishga erishish mumkin.

E’tibor berilsa, milliy g‘oyamizning asosiy tamoyillari xalqimizning tub milliy qadriyatlariga asoslangan va ularda umuminsoniylik ruhi aks etib turadi. Shu jihatdan Insonparvarlikning ziddini Insonni yomon ko‘rish, Ezgulikning ziddini Yovuzlik va Bunyodkorlikning ziddini Vayronkorlik tashkil etishini eslatib o‘tish joiz. Shu sababli milliy g‘oyamizning yangi tamoyillari bunday illatlarga qarshi kurashda asos bo‘ladi.

O‘zbekistonning milliy g‘oyasida quyidagi ikki masala muhim o‘rin tutadi :

1) *milliy qadriyatlar tarbiyasi*. Unga ko‘ra, milliy g‘oyamizning yuqorida ta’kidlangan g‘oyalari asosida shaxs tarbiyasida milliy qadriyatlarga tayaniladi.



1.-rasm. O'zbekistonning milliy g'oyasi

Milliy qadriyatlar – bu muayyan millat yoki xalqning asrlar davomida hayotida mavjud bo'lib kelgan yondashuvlar hamda odatlar majmuidir. Shu jihatdan milliy g'oyamizning milliy qadriyatlar tushunchasi xalqimizga xos bo'lgan insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik ruhi asosida shaxsni voyaga yetkazish hamda faoliyatga yo'llash tushuniladi.

2) *umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasi*. Unga ko'ra, insoniyatning hayotiy tajribasidan o'tgan va barchaga ma'qul tushuvchi yondashuvlar hamda odatlar milliy qadriyatlar majmuini tashkil etadi. Shu ma'noda bugungi kunda umuminsoniy qadriyatlar asoslarini tinchlikparvarlik, hamkorlik, birgalikda yashash, global muammolarni barcha xalqlar ishtirokida hal etish, Yer yuzi hayotini saqlab qolish, ekologik madaniyatga ega bo'lish kabilar tashkil etishini eslatib o'tish lozim. Shu ma'noda milliy g'oyamiz asosida ta'lim oluvchilarni tarbiyalashda mazkur qadriyatlarni ularning ongiga singdirish, dunyoqarashida tarkib topish va amaliy faoliyatida amal qilish ko'nikmasini shakllantirish taqozo etiladi.

Diqqat qilinsa, milliy g'oyamizning bu tarbiyaviy asoslari bugungi muammoning hal qilishdagi eng muhim asoslaridan biridir. Mazkur tahlillar natijasida milliy g'oyamizni quyidagicha idrok etish maqsadga muvofiq bo'ladi:

Milliy g'oyamizning bu tamoyillari falsafiy, ta'limiy, tarbiyaviy va ijtimoiy xususiyatlarni qamrab olganligi bilan e'tiborga loyiq.

Milliy g'oyamiz tamoyillarining asosiy manbalarini quyidagilar tashkil etadi:

- pedagogik meros;
- ta'lim va tarbiyaga oid milliy tajribamiz;
- ilmiy tadqiqotlarda bayon qilingan nazariy va amaliy xulosalar;
- milliy g'oya asosida tarbiyalash shakllari.

O'zbekiston milliy davlatchilik taraqqiyotida milliy g'oyalarga asoslanish muhim yo'nalish hisoblangan. Shu jihatdan quyidagilarni ta'kidlash joiz:

- 1) eng qadimiy davlatimizning milliy g'oyasi – Ezgulik;
- 2) qoraxoniylar davlatidagi milliy g'oya-Vatanparvarlik;

- 3) tohiriylar davlatidagi milliy g'oya-Bilimdonlik;
- 4) somoniylar davlatidagi milliy g'oya-E'tiqodlik;
- 5) xorazmshohlar davlatidagi milliy g'oya-Madaniyatlik;
- 6) temuriylar davlatidagi milliy g'oya-Adolatparvarlik;
- 7) Buxoro amirligi davlatidagi milliy g'oya-Ijtimoiylik;
- 8) Xiva xonligi davlatidagi milliy g'oya-Yurtparvarlik;
- 9) Qo'qon xonligi davlatidagi milliy g'oya-Ma'rifatparvarlik;
- 10) mustaqil davlatimizning 1991-2020-yillardagi milliy g'oyasi – Milliy istiqbol g'oyasi (Mustaqillik g'oyasi).

E'tibor berilsa, har bir milliy davlatchiligimiz davrida muayyan g'oyalar milliy g'oya darajasida qabul qilingan. Shu sababli bunday milliy g'oyalarni o'rganish va o'zlashtirish zaruriyat hisoblanadi. Shu jihatdan *qadimgi davlatchiligimizda* qabul qilingan Ezgulik milliy g'oyasining bugungi kunda yana qaytadan qabul qilinganligi muhim xususiyatga egadir. Chunki Ezgulik xalqimiz va umuman, insoniyatning ideal g'oyalaridan biridir.

Qoraxoniylar davlatidagi milliy g'oya-Vatanparvarlik bu o'ziga xos g'oyalardan biri bo'lib, u ham bugungi kunga qadar amalda bo'lib kelayotganligini eslatib o'tish joiz. Mazkur davlatimizda Vatanparvarlik Ona tilini, xalqni va davlatni saqlash mazmunida ishlatilgan. Shu sababli ushbu davlatimiz o'z davrida dunyoning eng qudratli davlatlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Bu davlatchiligimizdan bizgacha Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig" (Baxtga eltuvchi bilim) va Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'atit turk" (Turkiy so'zlar devoni) asarlari yetib kelganligini eslatib o'tish joiz.

Tohiriylar davlatidagi milliy g'oya-Bilimdonlik ideal g'oyalardan biri bo'lib, mazkur davlat tomonidan boshlang'ich ta'limda davlat miqyosida yo'lga qo'yilganligi va o'rta maxsus ta'limning barcha uchun bepul tashkil etilganligi ana shu g'oyaning aks sadosidir. Unga ko'ra, Tohiriylar davlatida Bilimli shaxs eng oliy darajadagi kishi hisoblangan. Mazkur davlat milliy g'oyasi haqida o'sha davrda yashab o'tgan mutafakkirlarimizdan biri Muhammad Nishopuriy "Tohiriylar" nomli asarida batafsil ma'lumot bergan.

Somoniylar davlatidagi milliy g'oya-E'tiqodlik ideal g'oyalardan biri bo'lib, bu g'oya mazkur davlatchilikning asosini tashkil etgan. Unga ko'ra, har bir kishi muayyan darajada E'tiqodga ega bo'lishi shart bo'lgan. Shuni ta'kidlash lozimki, bu o'rinda E'tiqod dunyoviy va diniy mazmunlarda qo'llanilgan. Shu sababli mazkur davlatchilikda o'ziga xos jamiyat kechganligini va boshqaruvning hozirgi Vazirlik shakli ana shu davlat tomonidan ta'sis etilganligini eslatib o'tish joiz. Bu borada o'sha davr mutafakkirlaridan biri Muhammad Narshahiyning "Buxoro tarixi" asarida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.



Xorazmshohlar davlatidagi milliy g'oya-Madaniyatlik ham o'ziga xos g'oyalardan biri bo'lib, mazkur davlatimizda bu tushuncha ko'p hollarda ziyoli bo'lish va shaharda yashash ma'nolarida talqin qilingan. Natijada shaharlar soni ko'payib, unda musiqa, arxitektura kabi san'atlar yuksak darajada rivojlangan. Buning misoli sifatida "Lazgi" musiqa asarini keltirib o'tish mumkin. Shu jihatdan Xorazmshohlar davlatida qabul qilingan Madaniyatlik milliy g'oyasi bugungi kunda ham bardavom bo'lib kelayotganligini eslatib o'tish joiz. Mazkur davlatning Madaniyatlik milliy g'oyasi to'g'risida o'sha davr mutafakkiri Muhammad Nababiyning "Xorazmshohlar tarixi" asarida o'ziga xos ma'lumotlar keltirilganligi va ularda o'sha davrdagi madaniyat ko'lami aks etganligi muhim hisoblanadi.

Temuriylar davlatidagi milliy g'oya-Adolatparvarlik g'oyasi eng ideal g'oyalardan biri bo'lib, u bevosita Amir Temur tomonidan joriy qilingan. Sohibqiron bu milliy g'oyani "Tuzuklar" asarida bayon qilgan bo'lib, uning asosiy shakli quyidagicha: "Rosti durusti-Kuch adolatdadir". Shu jihatdan Amir Temurdan boshlab barcha temuriy hukmdorlar o'z faoliyatida Adolatga tayanishni dastlabki maqsadi deb bilgan. Buning natijasida Temuriylar davlati o'sha davr va bugungi kunda ham davlatchilik, farovonlik va madaniyatning yuksak darajada rivojlanganligi bilan e'tirof etiladi. Misol uchun, o'sha davrda Adolat milliy g'oyasini ro'yobga chiqarish uchun oliy ta'lim tizimi joriy etilgan.

Buxoro amirligi davlatidagi milliy g'oya-Ijtimoiylikning ma'nosi shuki, insonning diniy e'tiqodi uning ijtimoiy faoliyatiga salbiy ta'sir qilmasligi kerak. Ya'ni, e'tiqod, turmush-tarz va kasb-hunar shaxsning Ijtimoiy (ommaviy) faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi kerak. E'tibor berilsa, Ijtimoiylik milliy g'oyasining bu mazmuni bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Shu sababli pedagog olimlarimiz mazkur milliy g'oyani tarbiyaning eng muhim asoslaridan biri deb hisoblaydi. Mazkur davlatning Ijtimoiylik milliy g'oyasi to'g'risida o'sha davr mutafakkirlaridan biri Muhammad Nodirxon "Mang'itlar tarixi" asarida batafsil ma'lumot berganligini eslatib o'tish joiz.

Xiva xonligi davlatidagi milliy g'oya-Yurtparvarlik bo'lib, unga ko'ra, har bir kishi o'z yurtini sevishi, muhofaza qilishi va uning taraqqiyoti yo'lida mehnat qilishi kerak. Diqqat qilinsa, ushbu Yurtparvarlik milliy g'oyasi bugungi kunda ham yashovchan bo'lib kelmoqda. Shu jihatdan Xiva xonligi davlatidagi mazkur milliy g'oya asosida yuksak darajadagi madaniyat rivojlanganligini eslatib o'tish joiz. Ushbu milliy g'oyaning asoslari to'g'risida Muhammad Rizo Ogahiy o'zining "Gulshani davlat" asarida batafsil ma'lumot bergan.

Qo'qon xonligi davlatidagi milliy g'oya-Ma'rifatparvarlik ham o'ziga xos g'oyalardan biri bo'lib, uning mazmuniga ko'ra har bir kishi o'zlarini anglashi, ajdodlarining an'alariga sodiq bo'lishi hamda jamiyatda hamkorlik asosida

yashashi kerak. Aynan bunday yondashuv Qo‘qon xonligi davlatida birlamchi hisoblangan va natijada xonlikda barcha kishining savodxon bo‘lishi imkoniyati paydo bo‘lgan. Ma‘rifatparvarlik milliy g‘oyasini amaliyotga tatbiq etishda bevosita Nodirabegim boshchilik qilganligini eslatib o‘tish joiz. Qo‘qon xonligi davlatidagi Ma‘rifatparvarlik milliy g‘oyasi haqida o‘sha davr mutafakkirlaridan biri Muhammad Andalib “Tarixi Shohruhiya” asarida batafsil ma‘lumot bergan.

Mustaqil davlatimizning 1991-2020-yillardagi milliy g‘oyasi-Milliy istiqloq g‘oyasi (Mustaqillik g‘oyasi) bo‘lganligi ma‘lum. Bu g‘oyaning asosiy tamoyillari Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, Xalq farovonligi, Ijtimoiy hamkorlik va Diniy bag‘rikenglik tamoyillari tashkil etganligi, mazkur milliy g‘oya asosida shaxslar va jamiyatda mustaqillik qadriyati tarkib topshirilganligini eslatib o‘tish joiz.

E‘tibor berilsa, mamlakatimiz milliy g‘oya va uning asosiy tamoyillarini belgilash hamda ularga amal qilish masalalarida o‘ziga xos tarixiy tajribalarga egadir. Mazkur masalalar to‘g‘ri idrok etilsa, yangi milliy g‘oyamizning tamoyillari mazmunini anglab olish oson kechadi.

Yuqorida ta‘kidlanganidek, 2021-yildan boshlab mamlakatimizda Insonparvarlik, Ezgulik va Bunyodkorlik tamoyillariga asoslangan yangi g‘oya amaliyotga kiritildi. Chunki mamlakatimizning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot dasturi “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” deb nomlangan bo‘lib, bu strategiyaning ijrosi jarayonida milliy g‘oyaga ehtiyoj seziladi. Mazkur ta‘kidlangan tamoyillar asosida O‘zbekiston ta‘lim tizimida quyidagi vazifalarni amalga oshirish dolzarb bo‘lib turibdi:

- ta‘lim oluvchilarning ongida Insonparvarlik, Ezgulik va Bunyodkorlik g‘oyalarini tarkib toptirish;
- o‘quv fanlari mazmuni va negiziga mazkur yangi g‘oyaning tamoyillarini singdirish;
- ta‘lim tizimida milliy g‘oya asosida ta‘lim va tarbiya jarayonini amalga oshirishning tizimini ishlab chiqish;
- o‘quv Foydalanilgan adabiyotlar.ining asoslarini milliy g‘oya vositasida takomillashtirish.

Bugungi kunda bu borada mamlakatimizda keng ko‘lamli ishlar boshlandi. Shu jihatdan milliy g‘oyaning tamoyillarini o‘zlashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirish dolzarb bo‘lib turibdi:

- milliy g‘oyaning tamoyillarini ta‘lim oluvchilarga tushuntiruvchi yangicha metodologiya va texnologiyalarni shakllantirish;
- ta‘lim oluvchilarning milliy g‘oyani o‘zlashtirishi, ularga amal qilishi va aynan shu asosda kelgusida faoliyat ko‘rsatishi mezonlarini ishlab chiqish;



- milliy g‘oyani targ‘ibot qilishda ta‘lim tizimini asos sifatida qabul qilish va bunday targ‘ibotning tizimini tarkib toptirish;
- milliy g‘oya asosida ta‘lim va tarbiya berishning istiqbolli mexanizmlarini shakllantirish.

Bunday yondashuv yangi O‘zbekistonning milliy g‘oyasi tamoyillarini to‘g‘ri idrok etish, ularni o‘rganish va ularga amal qilish ko‘nikmalarini va imkoniyatlarini egallashga olib keladi. Misol uchun, bu borada yuqorida ta‘kidlangan milliy davlatlarimizning milliy g‘oyalari asosida milliy g‘oyaning tamoyillarini sharhlash, izohlash va tahlil qilish kutilgan samarani beradi. Bularning barchasi milliy g‘oyaning tamoyillari bugungi kunda qanday ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Kezi kelganda ta‘kidlash lozimki, mamlakatimiz milliy g‘oyasining asosiy tamoyillari mazmunida milliylik va umuminsoniylik g‘oyalari uyg‘un tarzda o‘z aksini topgan. Shu sababli mazkur tamoyillar jamiyatimiz tomonidan tezda qabul qilindi va ularni idrok etish bo‘yicha ilmiy-metodologik harakatlar boshlanganini eslatib o‘tish joiz.

Shunday qilib, milliy g‘oyamizning yangi tamoyillarini o‘rganish, o‘zlashtirish va idrok etish muhim ahamiyatga ega. Mazkur masalada pedagogik oliy ta‘lim jarayonida nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va yuksak malakani o‘zlashtirish taqozo etiladi. Shu sababli mazkur masalani tadqiq etish va tadqiqotlar natijasi asosida ta‘lim-tarbiya jarayonini amalga oshirish dolzarb bo‘lib turibdi.

Adabiyotlar:

1. Jabborova O., Umarova Z., Boboxodjayeva L. Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi, innovasiya va integrasiya. Darslik. – Toshkent, 2021
2. Jabborova O.M., Umarova Z.A. Boshlang‘ich ta‘limda “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2022
3. Jabborova O.M., Ochilov F.I. Bolalar pedagogikasi. Darslik. – Toshkent, 2022
4. Jumanova F. va boshq. Umumiy pedagogika asoslari. – Toshkent, 2020
5. Zunnunov A., Mahkamov U. Didaktika. – Toshkent, 2006

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida jamiyat va shaxsni rivojlantirishda milliy g‘oya, millatning o‘tmishi, buguni va istiqbolini o‘zida mujassam etgan ijtimoiy g‘oyalar, milliy g‘oya – bu millatning ideal maqsad-muddaolarini ifodalovchi fikrlar, shaxs tarbiyasida milliy g‘oyaning muhim o‘rin haqida fikr yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье национальная идея в развитии общества и личности в период нового развития Узбекистана, социальные идеи, воплощающие прошлое, настоящее и будущее нации, национальная идея – это мысли, выражающие идеальные цели и задачи. нации, личности рассматривается значение национальной идеи в воспитании.

SUMMARY

In this article, the national idea in the development of society and the individual in the period of the new development of Uzbekistan, social ideas that embody the past, present and future of the nation, the national idea are thoughts that express ideal goals and objectives. nation, personality, the importance of the national idea in education is considered.